

JAMOAT XAVFSIZLIGI DEPARTAMENTI PROBATSIIYA XIZMATINING HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING MOHIYATI

Umaralieva Dilshodaxon Nabijonovna

IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi kafedrasida katta o'qituvchisi

Mamadaminov Azizbek Akram o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada, Probatsiya xizmati, uning asosiy huquqlari va majburiyatlari, bugungi kun holatidagi vazifalari haqida bayon etilgan. Shuningdek, probatsiya xizmatining huquqiy asoslari hamda faoliyatini tartibga solib turuvchi qonun hujjatlari keng yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Probatsiya xizmati, nazorat ostidagi shaxs, "Probatsiya to'g'risida"gi qonun, ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается служба пробации, ее основные права и обязанности, а также текущие задачи. Также широко освещены правовые основы службы пробации и законодательные акты, регулирующие ее деятельность.*

Ключевые слова: *Служба пробации, поднадзорное лицо, Закон "О пробации", наказания, не связанные с лишением свободы.*

Abstract: *This article discusses the Probation Service, its fundamental rights and responsibilities, and current tasks. The legal basis of the probation service and the legislative acts regulating its activities are also widely covered.*

Keywords: *Probation service, supervised person, Law "On Probation," non-custodial sentences.*

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq tizimidagi islohotlar xato qilgan shaxsga yana bir bor imkoniyat berish orqali uni yana oilasi bag'riga qaytarish, uning xulq-atvoridagi nuqsonlarni bartaraf etishga ko'maklashish va jamiyatga moslashtirishga xizmat qilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 noyabrda «Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4006-son qaroriga asosan 2019 yil 1 yanvardan e'tiboran, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Probatsiya xizmati va uning hududiy bo'linmalari tashkil etildi ⁴².

Probatsiya tizimi zamonaviy huquqiy tizimda jazoni ijro etishning muhim bo'lagi hisoblanadi. Probatsiya xizmatining asosiy vazifalaridan biri, jinoyat sodir etgan shaxslarni jamiyatdan ajratmagan holda jazolash va ularni qayta hayotga ijtimoiy moslashtirish orqali tuzalish yo'liga kirishiga ko'maklashish hisoblanadi. "Probatsiya" atamasi lotin tilidan olingan bo'lib, "sinov" degan ma'noni anglatadi.

⁴² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 ноябрдаги «Жиноят-ижроия қонунчилигини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-4006-сонли қарори // URL: <https://lex.uz/docs/4045443> (Электрон манбага мурожаат қилинган вақт: 14.03.2023).

Probatsiya – sud hukmi yoki ajrimi bilan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarga hukm qilingan shaxslarga nisbatan jazo ijro etilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, nazoratdagi shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Probatsiyaning huquqiy asoslari uning vazifalarini aniq belgilashda, shuningdek, Probatsiya nazorati va yordam xizmatlarining vakolatlarini belgilashda namoyon bo'ladi. Probatsiya xizmati sud qarorlarini ijro etish, jinoyat sodir etgan shaxslarning xulq-atvorini nazorat qilish va tuzatish mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi.

Probatsiya nazoratidagi shaxslarga ijtimoiy, huquqiy, tibbiy, psixologik yordam ko'rsatish, ularning ta'lim olishiga, kasb-hunar o'rganishiga va ishga joylashishiga ko'maklashish vositasida jamiyatning to'la huquqli a'zosiga aylanishiga qaratilgan faoliyat ijtimoiy moslashtirishdir.

Probatsiya nazoratidagi shaxslarga nisbatan ijtimoiy moslashtirish dasturi asosida ijtimoiy moslashtirish choralari qo'llaniladi⁴³.

Probatsiya xizmati o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, Jinoyat-ijroiya kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi, "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi va boshqa tegishli qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Ichki ishlar vazirligining buyruqlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlariga amal qiladi⁴⁴.

Probatsiya nazoratidagi shaxslarning ijtimoiy moslashuvi va qo'llab-quvvatlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Probatsiya jazoni ijro etishning muqobil shakli sifatida, jinoyatchining ijtimoiy muhitga moslashishini ta'minlashga, qayta jinoyat sodir etilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Probatsiya xizmati O'zbekiston Respublikasining "Probatsiya to'g'risida"gi qonuni asosida quyidagi huquqlarga ega:

- probatsiya nazoratidagi shaxslardan probatsiya to'g'risidagi qonunchilikka rioya etishni, g'ayrihuquqiy hatti-harakatlarni tugatishni talab qilish;
- probatsiya nazoratidagi shaxslarning shaxsini tasdiqlaydigan hujjatlarning tekshiruvini amalga oshirish;
- ozodlikni cheklash tarzidagi jazoga hukm qilingan, o'ziga nisbatan muayyan buyumlarga ega bo'lishga yoki ularni saqlashga doir sud tomonidan taqiq (cheklov) belgilangan shaxslarni ushbu taqiqqa (cheklovga) rioya etilayotganligini tekshirish maqsadida shaxsiy ko'rikdan o'tkazish, ularning ashyolarini, qo'l yukini, bagajini ko'zdan kechirish;
- sud tomonidan o'ziga nisbatan muayyan vaqtda yashash joyida bo'lish majburiyati belgilangan, shuningdek o'ziga nisbatan tuman (shahar) probatsiya

⁴³ O'zbekiston Respublikasi 07.08.2024 yildagi "Probatsiya to'g'risida"gi O'RQ 938-sonli qonuni. <https://lex.uz/docs/7050441>

⁴⁴ Ўзбекистон Республикаси ИИВнинг 19.02.2019 йилдаги "Жамоат хавфсизлигини таъминлаш департаменти Пробация хизмати фаолиятига янги иш услубларини татбиқ этиш тўғрисида"ги буйруғи

bo'linmasining rozilgisiz yashash joyini o'zgartirishga, tegishli ma'muriy hudud doirasidan tashqariga chiqishga doir taqiqlar (cheklovlar) belgilangan probatsiya nazoratidagi shaxslarning mazkur taqiqlarga (cheklovlarga) va majburiyatlarga rioya etishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida probatsiya nazoratidagi shaxslarning yashash joyini ushbu Qonunda belgilangan tartibda tekshirishni amalga oshirish;

- tegishli davlat organlarini va tashkilotlarini, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini, nodavlat notijorat tashkilotlarini hamda fuqarolarni probatsiya nazoratidagi shaxslarni ijtimoiy moslashtirishga doir faoliyatga jalb etish;

- probatsiya to'g'risidagi qonunchilik buzilishlarini, shuningdek ularning sabablarini va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish haqida davlat organlariga, boshqa tashkilotlarga yoki mansabdor shaxslarga bajarilishi shart bo'lgan taqdimnomalarni o'z vakolatlari doirasida kiritish;

- probatsiya nazoratidagi shaxslarning mastlik holatini sertifikatlashtirilgan maxsus texnik vosita yordamida yoki tuman (shahar) davolash-profilaktika muassasalarida mas'ul xodimlar yordamida aniqlash;

- probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatish maqsadida ushbu shaxslarga jamoat tarbiyachilarini (yashash joyi bo'yicha) yoki murabbiylarni (o'qish yoki ish joyi bo'yicha) biriktirishga doir chora-tadbirlarni ko'rish;

- axloq tuzatish ishlari tarzidagi jazoni o'tayotgan probatsiya nazoratidagi shaxslarning ish joyidan ish haqi, ishlagan kunlari, ish haqidan ushlab qolishlarning miqdorlari to'g'risidagi hisob-kitob ma'lumotnomalarini olish.

Probatsiya xizmati qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6196-son farmonida IIV Jamoat xavfsizligi departamenti va uning hududiy bo'linmalari tarkiblarida tegishli Probatsiya xizmati va uning hududiy bo'linmalari tashkil etilishi, Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar vazirining, viloyat, tuman va shahar ichki ishlar organlari boshliqlarining o'rinbosari – Jamoat xavfsizligi xizmati boshlig'i lavozimi joriy etilishi va uning asosiy vazifalaridan biri sifatida muqaddam sudlangan va probatsiya hisobiga olingan shaxslar bilan ishlash hamda ichki ishlar organlarining tungi xizmatini tashkil etishi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 apreldagi "Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 5050-son qarori bilan tasdiqlangan "Mahalla huquq-tartibot maskani to'g'risida"gi nizomda maskanlar o'z faoliyatini hududda xizmat qilish uchun biriktirilgan tuman (shahar) ichki ishlar organining xotin-qizlar masalalari bo'yicha

inspektori, probatsiya bo'linmasi inspektori, tezkor vakil, patrul-post xizmati xodimlari tarkibida amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8-maydagi 346-sonli "Majburiy jamoat ishlari tariqasidagi jazoning ijrosini tashkil etish tartibi haqidagi nizomni hamda majburiy jamoat ishlari turlarining ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida" gi hamda 2020-yil 14-fevraldagi 84-sonli "Ichki ishlar organlari Probatsiya xizmati faoliyatini samaral tashkil etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarorlari bilan Probatsiya faoliyati tegishli tartibga solib kelinmoqda.

Shuningdek, yuqorida qayd etilgan islohotlarning mantiqiy davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi «Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida» gi 27-son farmoni ham ichki ishlar organlarining Probatsiya faoliyatini amalga oshiruvchi tarkibiy tuzilmalarining huquqiy maqomiga oid normalar yanada mustahkamlanishiga o'zining beqiyos hissasini qo'shdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, mazkur Farmonda jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning yaxlit tizimini shakllantirish, ichki ishlar organlarining eng quyi bo'g'inidan respublika darajasigacha samarali faoliyatini yo'lga qo'yish va zamonaviy ish uslublarini joriy etish orqali mamlakatimizda huquq-tartibot va qonuniylikni mustahkamlash, aholining tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashda ichki ishlar organlari faoliyatini tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizmlari belgilab berildi.

Probatsiyaning huquqiy va tashkiliy asoslarini yanada mustahkamlash uchun doimiy ravishda qonun hujjatlari va normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, xodimlarning malakasini oshirish hamda xalqaro tajribalarni o'rganish zarur. Shu bilan birga, Probatsiya tizimining samarali ishlashi jinoyatni kamaytirishga, jamiyat xavfsizligini ta'minlashga va inson huquqlarini hurmat qilishga xizmat qiladi. Shu sababli ichki ishlar organlarida Probatsiya huquqiy maqomini oshirish va samaradorligini yanada oshirish uchun O'zbekiston Respublikasining 2024- yil 7-avgustda qabul qilingan "Probatsiya to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi O'RQ 938-sonli qonunni qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu qonunning qabul qilinishi orqali butun xizmatning tarkibiy tuzilishlari, asosiy maqsad va prinsiplari hamda aniq faoliyat yo'nalishlari belgilab berildi⁴⁵.

Xulosa qilib olganda, bugungi kunda Probatsiya xizmati Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatlarni oldini olishda o'rni kata va beqiyosdir.

Probatsiya xizmati joylardagi bo'lim va guruhlarining asosiy vazifalari ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq jazolarga hukm qilingan shaxslarni belgilangan tartibda jazosini o'tattirish, nazorat qilib borish va qayta jinoyat sodir etishini oldini olish jamoat xavfsizligini yuqori darajada taminlashdan iborat.

⁴⁵ Умаралиева Д.Н. Значение правового положения лиц, находящихся под пробатсионным контролем, и возложенных на них обязанностей при исполнении наказаний, не связанных с лишением свободы// https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=6iXDNw0AAAAJ&citation_for_view=6iXDNw0AAAAJ:qjMakFHDy7sC

Shuningdek, xorijiy davlatlarning tajribalarini o'rganish va huquqiy normalar asosida Probatsiyaning yanada takomillashtirilishi, ushbu tizim orqali jinoyatchilarning qayta ijtimoiylashuvi, huquqbuzarliklarning oldini olish va huquqiy ongini oshirishda salmoqli hissa qo'shish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – 30.04.2023 – Toshkent
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi – 22.09.1994 – Toshkent
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi // URL: <http://lex.uz/docs/163629>
4. O'zbekiston Respublikasining Qonuni – “Ichki ishlar organlari to'g'risida”, O'RQ – 407, 16.09.2016-yil
5. O'zbekiston Respublikasining Qonuni – “Probatsiya to'g'risida”, O'RQ – 938, 07.08.2024-yil
6. O'zbekiston Respublikasining Qonuni – “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”, O'RQ – 681, 20.04.2021-yil
7. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining buyrug'i – “Probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnomani tasdiqlash haqida” – IIV – 403, 19.07.2025
8. D.N.Umaraliyeva. Ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarga hukm qilingan shaxslarning xulq- atvori ustidan ta'sirchan nazorat olib borishda probatsiya xizmatining o'rni. Siyosatshunoslik, huquq va halqaro munosabatlar jurnali. Toshkent 2023. Vol. 2 No. 2 (2023). ISSN -2181-2594 (http://t.me/ScienceBox_official)
9. Umaraliev D.N. Znachenie pravovogo polojeniya lis, naxodyaxixsya pod probatsionnym kontrolem, i vozlojennых na nix obyazannostey pri ispolnenii nakazaniy, ne svyazannyx s lisheniem svobody//https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=6iXDnw0AAAAJ&citation_for_view=6iXDnw0AAAAJ:qjMakFHDy7sC
10. Kurbanov M. N. Muqaddam sudlangan shaxslar o'rtasida amalga oshiriladigan maxsus profilaktikasini takomillashtirish masalalariga oid fikr mulohazalar //Central Asian Journal of Academic Research. – 2024. – T. 2. – №. 12. – S. 68-72.